«KETRING» MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI quyidagilarni sotib olishga tanlov o‘tkazadi:

- External USB HDD 1TB Drive, USB 3.0 Miqdori - 3 dona.
- HDD 1000 Gb / 7200 rpm, SATA 3.0. Miqdori - 2 dona.

To‘lov shartlari:

Avans to‘lovining summasi: 15% miqdorida; Avans to‘lovining muddati: 10 kalendar kuni davomida; Qolgan 85% pul vositalarini o‘tkazilish muddati –

Sotib oluvchining omboriga kelgandan keyin 10 kalendar kuni davomida.

To‘lov valutasi – milliy valuta – so‘m.

Yetkazib berish sharti

Yetkazib berish muddati: Sotuvchining hisob raqamiga oldindan to‘lov o‘tkazilganidan keyin 7 kalendar kunidan oshmagan xolda.

Bajarilishi shart bo‘lgan shartlar:

- Faoliyati litsenziyalangan bo‘lishi shart. (Agar faoliyatga litsenziya talab qilinsa);
- Tomonlarning javobgarligi 1998-yil 29 avgustdagi 670-I-sonli «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi;
- Tovarni qabul qilish-topshirish vaqtida tovarni past sortda (sifatda) bo‘lishi yoki nuqsoni aniqlangan vaqtida, tovar qabul qilinmaydi;
- Muvofiqlik sertifikatini mavjud bo‘lishi shart;
- Yetkazib berilayotgan tovar yangi bo‘lishi shart va ilgari ishlatilmagan bo‘lishi kerak;
- «Yetkazib beruvchi» Kontraktda ko‘rsatilgan, yuridik manzil bo‘yicha ofisga ega bo‘lishi kerak;
- Nuqsoni bor tovar, «Yetkazib beruvchi» tomonidan 3 (uch) kunlik muddatda almashtirilishi shart.
- Tovar e’londa ko‘rsatilgan talablar va texnik parametr (o‘lchamlarga) muvofiq bo‘lishi shart;
- Yetkazib berish «Buyurtmachining» joylashgan joyigacha.

Alohida shartlar:

Tijorat taklifiga tovar qanday standart (TK) bo‘yicha tayyorlanganligini tasdiqlovchi, hujjat nusxasi yoki muvofiqlik sertifikati (nusxasi sotuvchi tomonidan tasdiqlangan) Guvohnomasi, Litsenziyasi ilova qilinsin.

Yetkazib beruvchi O‘zbekiston bozorida ishlashi shart va ro‘yxatdan o‘tgan ofis bilan shahar telefoniga ega bo‘lishi kerak.

Tanlovda ulgurji savdoni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan, ishlab chiqaruvchi-zavodlar, chet el va mamlakatimizning firmalari va tashkilotlari ishtirok etishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish uchun cheklovlar:

Tanlovda quyidagilarga ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

- Qayta tashkil etish holatida bo‘lgan, faoliyati tugatilgan yoki bankrot holatdagi, barcha zarur bo‘lgan hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim eta olmagan tashkilotlar va firmalar;
- Sudlov yoki arbitraj tekshiruvlari holatida bo‘lgan, ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni tegishlicha bajarmagan buyurtmachilar bilan;
- Tijorat va moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha konkurs komissiyasi talablariga javob bermaydiganlar bilan.

Tijorat takliflari quyidagi manzilda qabul qilinadi:

O‘zbekiston, 100028, Toshkent shahri, I.A.Karimov nomidagi «Toshkent» Xalqaro aeroporti

«Ketring» MChJning direktor o‘rinbosari B.T. Azimovga

Ma’lumot uchun telefon: 215-61-34, tel/faks: 255-25-68

E-mail: dogovoratashkent@mail.ru

Tijorat takliflari 2019-yil 04-dekabrgacha pochta, faks, elektron pochtasi orqali qabul qilinadi.

Download PDF